

O'ZBEK VA ISPAN TILLARIDA GRADUAL SINONIMIYA

Tashniyazova Shoira Xolmuradovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligida keyingi yillarda lug'aviy sinonimlarni ularning leksik ma'nolari tarkibini semik tahlil qilish asosida belgilash orqali ularning mohiyatidagi aynanlik va farqlilik belgilarini ajratish orqali graduonimiya hodisasi bilan o'zaro munosabati orqali gradual sinonimiya hodisasining namoyon bo'lishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: lug'aviy sinonimlar, leksik ma'no, semik tahlil, ma'noviy farqlar, uslubiy xoslanish belgisi, konnotatsiya, ma'no nozikligi, emotsiyal bo'yoq, dominanta, neytral so'z, semantik hodisa, semasiologik asos, so'zning semantik strukturasi, sememe, sema, nomema, aynanlik, farqlilik, umumiylilik.

Аннотация: В статье рассматривается проявление явления градуальной синонимии в узбекском языкоznании последних лет посредством выявления лексических синонимов на основе семиотического анализа структуры их лексических значений, а также взаимодействие с явлением градуонимии посредством выделения признаков сходства и различия в их сущности.

Ключевые слова: словарные синонимы, лексическое значение, семиотический анализ, семантические различия, стилистический характерный признак, коннотация, тонкость значения, эмоциональная окраска, доминанта, нейтральное слово, семантическое явление, семасиологическая основа, семантическая структура слова, семема, сема, номема, точность, различие, общность.

Abstract: The present paper considers the traditional and contemporary views on defining synonyms in Uzbek linguistics, where distinguishing the similarities and differences in semic analyses of the lexical meanings of synonyms worth special attention.

Keywords: lexical synonymy, lexical meaning, semic analyses, differences of meaning, stylistic features, conotation, emotional shade, dominance, neutral word, semantic phenomenon, semasiological bases, semantic structure of the word, sememe, seme, nomeme, similarity, difference, commoness

O'zbek tilshunosligida graduonimiya va sinonimiya masalalariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari mavjud bo'lsa-da, bu ikki hodisani tutashtiruvchi jihatlar, ularning o'zaro aloqasi, sinonimik qatordagi birliklarda ham miqdoriy darajalanishning kuzatilishi, bu muammoning izohli lug'atlar, milliy til korpuslarida aks etishi masalasi maxsus o'rganilgan emas.

Graduonimiya hodisaning sinonimik qatorlarda ham kuzatilishi, graduonimiya va sinonimianing ayrim o‘rinlarda zich bog‘lanishini, ularni o‘zaro aloqa-bog‘lanishda o‘rganish lozimligini ko‘rsatadi. Albatta, *chaqaloq, ninni, go‘dak, o‘spirin, yigit* graduonimik qatoridagi har bir so‘zni o‘zaro sinonimik munosabatda deb bo‘lmaydi.

Ayniqsa, bu qatordagi so‘zlarni bola so‘zi bilan sinonimik munosabatda deb hisoblash noto‘g‘ri. Ammo bu vaziyatda chaqaloq va ninni so‘zlari sinonimik munosabatga kirisha oladi.

Bunday holat *jilg‘a-ariq-irmoq-soy-daryo-dengiz-okean* graduonimik qatorida ham kuzatiladi. Ushbu so‘zlarni ham o‘zaro sinonimik munosabatda deb bo‘lmaydi. Ariq va irmoq so‘zlarini sinonimlar sifatida baholash mumkin. Ammo bu so‘zlar jilg‘a, soy, daryo, dengiz, okean so‘zlari bilan sinonimik munosabatga kirisha olmaydi. Sinonimlar bir narsa-hodisa, belgi, harakat-holat kabilarni anglatuvchi hamda uslubiy va ayrim ma’no nozikliklari bilan farqlanuvchi til birlklari bo‘lgani bois bir-biridan lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra farqlanuvchi jilg‘a, soy, daryo, dengiz, okean so‘zlari sinonimik qatordan o‘rin ololmaydi.

Xuddi shunday, *yelvizak-shabada-shamol-bo‘ron* leksemalarining havo oqimining tez yoki sekin esishi nuqtai nazaridan farqlanishi ularni bir sinonimik qatorga birlashtirishga izn bermaydi. Bu haqda fikr yuritar ekan, Sh.Orifjonova quyidagilarni yozgan: “Zeroki, sinonimlarni ajratishning, so‘zlarni sinonimik paradigmalarga birlashtirishning asosiy omili sinonim so‘zlar anglatgan, ular nomlaydigan, ataydigan narsa, voqeа, hodisa, belgi, xususiyat... (ya’ni, vogeliklar va denotatlarning)ning aynanligidir.” Chunonchi, “Odam boshining old qismi” - *yuz, aft, bashara, turq, chehra, jamol, oraz, uzor* sirasida denotat bitta; *darcha - eshik- darvoza* graduonimik qatorida esa denotatlar har xil”.

Ma’lum bo‘ladiki, graduonimiya va sinonimiya bir-biridan farqli mustaqil lisoniy hodisalardir. Graduonimiyada mohiyatan turlicha, ba’zan bir mohiyatli narsa-predmet, belgi, harakat-holat kabilarni anglatuvchi til birlklari miqdoriy o‘sib borish belgisiga ko‘ra farqlanib, bir qatorga tizilsa; sinonimiyada bir obyekt yoki belgi, harakat-holatni nomlovchi birliklar umumiylar semantik belgisiga ko‘ra bir qatorga teriladi. Ammo shunga qaramay, bu ikki lisoniy hodisani o‘zaro tutashtiruvchi, muayyan o‘rinlarda bir-biriga to‘qnash keluvchi jihatlar ham mavjud.

Graduonimiya va sinonimianing o‘zaro tutashgan jihatlari gradual sinonimiyada kuzatiladi. Gradual sinonimiyada bu ikki lisoniy hodisaga xos belgilar jamlanadi. Xarakterli jihat shundaki, sinonimiyada yuz bergan darajalanish uchinchi bir hodisa -antonimianing ham yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu haqda fikr yuritar ekan, B.A.Bulgarova quyidagilarni bayon qiladi: “Graditsion daraja shkalasining shakllanishida graditsion belgining inobatga olinishi farqlilikka asoslangan munosabatlarning qarama-qarshilik/zidlanishlarga o’tish zonasini aniqlashga yordam beradi. Bunday vaziyatda sinonimiya hodisasi antonimiyaga

o‘tadi. Sifatiy belgi va bahoning bir-biriga zid darajalarining ifodalanishi kuchiga bog’liq tarzda ko‘rib o‘tilayotgan til birliklari kuchli va kuchsiz antonimik juftliklarni hosil qiladi”.

J.Djumabayeva graduonimik qator birliklarining munosabati haqida fikr bildirib, bunday qatorlarda antonimik munosabatlarning ham shakllanishi mumkinligi haqida to‘xtalib o‘tadi. Uning fikricha, “graduonimik qatorning o‘ng va chap tomonlaridan oxirgi a’zosi ba’zan bir-biriga antonim bo‘lishi, ba’zan esa antonim bo’lmasligi ham mumkin, bu darajalanayotgan leksemaning ma’noviy hamda kontekstual xususiyatlariga bog‘liqdir. Graduonimik qatorning qutblarida joylashgan leksemalar o‘zaro antonim bo‘lca, nol darajaning o‘ng tomonidagi a’zolardan alohida, chap tomonidagi a’zolar ishtirokida alohida graduonimik qatorlar hosil qiladi. Bunday qatorlarga nisbatan mikrograduonimik qatorlar terminini qo‘llash lozim. Agar har ikkala qutbda antonimlar bo‘lsa, ular makrograduonimik qatorlar hisoblanadi”.

Gradual sinonimiyyada ham darajalanish kuchli pozitsiyada bo‘lsa, chap va o‘ng tomonning oxirgi a’zolari munosabatida ziddiyat kuchayib, antonimiya yuzaga keladi.

Bu o‘rinda aytib o‘tish joizki, qator manbalarda graduonimiyani belgilashda asosiy e’tibor belgi darajasining o‘sib borishi masalasiga qaratiladi. Bizningcha, graduonimiyani bu tarzda talqin etish uni tor tushunishdan iboratdir. Darajalanish nafaqat belgi bildiruvchi birliklar, balki tovush, his-tuyg‘u, hatto subyektiv munosabatlar ifodasida ham kuzatiladi. Bu jihatdan qaraganda, darajalanish tilning barcha sath birliklariga daxldor hodisadir. P.P.Berezinskayaning fikricha, nafaqat belgi bildiruvchi fizik kordinatalar (vaqt, makon), fizik xususiyatlar (tezlik, kuch, rang, harorat kabilar), balki subyektiv tarzda qiyos orqali idrok etiluvchi hissiyot va sifat belgilari ham darajalana oladi.

Sinonimiya va graduonimiyaning umumiy, tutash jihatlari ularning lisoniy unversaliya ekanida ham kuzatiladi. Bu hodisalar barcha tillarda kuzatiladi. Shuningdek, sinonimiya kabi graduonimiyada ham paradigma a’zolari “umumiy belgi”ga ega bo‘ladi. Ammo bu “umumiy belgi” sinonimiya va graduonimiyada o‘zaro farqlanadi.

Sinonimiyyada “umumiy belgi” turli birliklarning bir denotatni ifodalashi bilan belgilansa, graduonimiyada asosan turli denotatlarni ifodalovchi birliklarning har birida takrorlanuvchi “umumiy belgi” bilan izohlanadi. Ammo ulardagি bu umumiy belgi miqdoran o‘sib boruvchi belgi hisoblanadi. Masalan, graduonimik qatordagi paradigma a’zolari narsa-predmetni anglatuvchi birliklardan tashkil topsa, ularning har biri muayyan hajmga ham ishora qilishi nuqtai nazaridan umumiy belgiga ega bo‘ladi. Ammo bu umumiy belgi paradigma a’zolarining har qaysisida har xil darajada bo‘ladi.

Xullas, sinonimiya va graduonimiya bir-biridan farqlanuvchi, shu bilan birga, o‘zaro aloqa-bog‘lanishda bo‘lgan lisoniy hodisalardir. Sinonimiyanı farqlashda

asosiy e'tibor, garchi nozik ma'no qirralari bilan ajralib tursa-da, bir umumiyl tushuncha asosida birlashuvchi til birliklari munosabatiga qaratilsa; graduonimik qatorlarni belgilashda ko'pincha turli tushunchalarni anglatuvchi til birliklarining miqdoriy farqlanishdagi umumiyl belgisiga asoslaniladi. Ba'zan bir tushuncha doirasida birlashuvchi sinonimik qatorlarda ham graduonimik munosabatning kuzatilishi bu ikki hodisaning yondosh hodisalar ekanligini, ularning o'zaro zinch bog'lanishini asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berezniskaya P.P. Tipologiya i struktura gradualntix poley v russkom yaztike: Diss. ... kand. filol. nauk. - Krasnodar, 2004.
2. Bulgarova B. A. Gradualnaya organizatsiya tekstovogo semanticheskogo polya "smex" (na materiale proizvedeniya M. A. Bulgakova): Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. - M., 2001.
3. Nurmuhamedov M., Qo'shjonov M. O'zbek xalq maqollari. -T.: Fan, 1981. 400 b.
4. Гицуцкий А.А. Введение в языкоизнание. М.: HayKa, 2003. - 335 с.
5. АНОРБОЕВА, С. (2024). SYSTEMS OF TRANSLATOR TRAINING IN UZBEKISTAN UNIVERSITIES AND A MODERN MODEL OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF A TRANSLATOR. *News of the NUUz*, 1(1.10), 63-66. <https://doi.org/10.69617/nuuze.v1i1.10.4534>.
6. АНОРБОЕВА С. ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕРЕВОДЧИКА ПРИ ОБУЧЕНИИ ТЕХНИЧЕСКОМУ ПЕРЕВОДУ //Тараққиёт тадқиқотлари: илмий-амалий анжуманлар материаллари тўплами. – 2024. – Т. 2. – №. 16. – С. 30-33.
7. ANORBOYEVA S. STILISTIK VA PRAGMATIK JIHATDAN TARJIMA TURLARI //Замонавий тадқиқотлар ахборотномаси. – 2024. – Т. 2. – №. 4. – С. 3-6.